



O'zbekistonda fuqorolik jamiyatini shakillanishi va rivojlanishi

O'zbekiston tarixi fani o'qituvchisi
Islomova S.



O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH



- 1. MUSTAQILLIKNI TEZLASHTIRGAN OMILLAR NIMALARDA NAMOYON BO'LDI?**

- 2. 1991 YIL AVGUST OYIDA SODIR BO'LGAN 3 TA MUHIM VOQEA QAYSILAR?**

- 3. "MUSTAQILLIK DEKLARATSIYASI" VA "MUSTAQILLIK ASOSLARI TO'G'RISIDAGI" QONUNLARGA SHARX BERING**



Milliy huquqiy davlat qurilishi omillari



TIIAME

- Xalqoro tan olingan huquqiy tamoyillar inobatga olindi;
- Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga tayanildi;
- Ko'p ming yillik o'zbek davlatchiligi tarixi va o'ziga xos ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslandi
- Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning eng demokratik tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini barpo etish yo'lidan bordi
- Davlat boshqaruvida yangi zamonaviy va samarali tizimi prezidentlik boshqaruv usulini yaratish yo'li tanlandi



Qonun chiqaruvchi davlat organlari



Oliy kengash

- 1990 yil saylandi;
- 1990-1994 yillar faoliyat yurtdi;
- 200 ta qonun va 500 ortiq qarorlar qabul qilindi

Oliy majlis

- 1992 yil konstitutsiyaga binoan qayta nomlandi; (76 modda)
- 1993 yil Oliy Majlisga saylovlar to'grisidagi qonun;
- 1994 yil O'zRes Oliy Majlisi tog'risidagi qonun;
- 1994 yil saylov otkazildi;
- 1995 takroriy saylovlar



Oliy Majlis



Qabul qilingan qonun
hujjatlari ijrosini
nazorat qilish

Parlamentlararo
aloqani rivojlantirish va
mustahkamlash

O'zRes islohotlarini huquqiy
bazasini mustahkamlovchi
qonunlar yaratish

Oliy majlis faoliyat
yo'nalishlari

Amaldagi qonun hujjatlarimiz
monitoringini alqoro huquq
normalarini o'rgangan holda
olib borish

Shaxsning
konstitutsiyaviy huquq
va erkinliklarini himoya
qilish

Joylardagi hokimiyat
vakillik o'r ganlariga
amaliy yordam
ko'rsatish



Oliy Majlis



- 2000 yil 25 may- ikki palatali tizimga o'tishi taklifi berildi;
- 2001 yil 6/7 dekabr- ikki palatali tizim muhokama qilindi;
- 2002 yil 27 yanvar –Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston parlmentini ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz degan mavzuda referendum boldi;
- 2002 yil O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi va Senati to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi;
- 2003 yil konstitutsiyaga o'zgartirilishlar kiritildi;
- 2005 yil ikki palatali parlamentga saylovlar o'tkazildi;
- 2005 yil 27 yanvar ikki palatali parlamentini shakillantirish yakunlandi



Vazirlar Mahkamasi



- Davlat budgetini ishlab chiqadi va Oliy Majlisga taqdim etadi hamda uning bajarilishini taminlaydi;
- Oliy Majlisga davlat budgeti bajarilishi haqida hisobot beradi;
- Yagona moliya kredit va pul siyosati yuritilishini taminlaydi;
- Madaniyat, fan, maorif, ijtimoiy taminot, ekologiya sohasida yagona davlat siyosatining yuritilishini ta'minlaydi;
- Mamlakatni mudofaa qilish, davlat xavfsizligi, tashqi siyosatn amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshiradi
- Qonuniylik fuqarolarning huquqlari va erkinliklarin ta'minlash jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshiradi.



Vazirlar Mahkamasi tarkibi:



- O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri
- O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirning o'rinnbosarlari
- Vazirlar
- O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitalarining raislari
- Davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradilar
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi lavozimi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.



Vazirlar Mahkamasi



Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarini tayyorlash, tegishli qarorlar loyihalarini, tahliliy, axborot va boshqalar materiallarni tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda tekshirib borish uchun Vazirlar Mahkamasi Apparati faoliyat ko'rsatadi.

Quyidagi Axborot-tahlil departamentlari Vazirlar Mahkamasi apparatining asosiy tarkibiy bo'linmalari hisoblanadi:

- Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlar yig'ma axborot-tahlil departamenti;
- Agrosanoat va suv xo'jaligi komplekslari masalalari axborot-tahlil departamenti;
- Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari axborot-tahlil departamenti;
- Yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, metallurgiya va mashinasozlik masalalari axborot-tahlil departamenti;
- Iste'mol tovarlari va savdo kompleksi masalalari axborot-tahlil departamenti;
- Axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari axborot-tahlil departamenti;
- Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari axborot-tahlil departamenti




Sud hokimiyati



- **Sud hokimiyati** – uchunchi hokimiyat organi tarmog'i bo'lib, u qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritiladi. Sud tuzimi 5 yil muddatga saylanadi. Sudlarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilab qo'yilgan.
- O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud,
- Oliy sud,
- Oliy xo'jalik sudi,
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi,
- Toshkent shahar, tuman, shahar, xo'jalik sudlariga bo'linadi







Mahalliy davlat hokimiyati



- **Mahalliy davlat hokimiyati asoslari** – bugungi kunda viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlik boshchilik qiladigan halq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fiqoralarining manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. Mahalliy hokimiyat organlari ihtiyoriga qo‘yidagilar kiradi:
 - 1) qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;
 - 2) hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
 - 3) mahalliy byudjetlarni shakllantirish;
 - 4) mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish;
 - 5) fuqarolik holati aktlarini qayd etish va h.k.

Bulardan boshqa shaharcha, qishloq va ovullarda mahallalarda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqaradigan organlari ham mavjud bo‘lib, ular demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda roli yanada ortib bormoqda.



Saylov tizimi



- 1991 18 noyabr- O'zbeiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida
- 1993 28 dekabr -O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida
- 1994 may – Xalq deputatlari viloyat tuman va shaxar Kengashlariga saylov to'g'risida
- 1994 may- Fuqorolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida qonunlar qabul qilindi.



QISQACHA XULOSA



- Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qonun ustuvorligi quyidagi uchala holat bo'lgandagina, o'zining to'liq ifodasini topadi.

Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-hujjatlar adolatga, inson huquqi va manfaatlariga asoslangan bo'lishi shart.

Ikkinchidan, Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarilishi zarur.

Uchinchidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi – qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi. Demokratik jamiyatning muhim tamoyili bo'lgan qonun ustuvorligi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati qurishning asosidir. Albatta, demokratik jamiyat qurish faqat qonun ustuvorligi bilan cheklanib qolmaydi, balki xalqimizning milliy-ma'naviy negizlariga tayanishni taqozo etadi va zaruriy sharti qilib qo'yadi.



MUHOKAMA UChUN SAVOLLAR



- O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishida qonun ustuvorligi tamoyilini izohlab bering?
- O‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘zaro munosabatlari qanday?
- O‘zbekistonda davlat hokimiyati tizimining bo‘linish prinsiplarini bayon eting?
- Ikki palatali parlamentning bir palatali parlamentdan farqi nima?
- Qonunchilik palatasi va Senatni shakllantirish tartiblari nimalardan iborat?
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish tartibi saylov qonunchiligida qanday belgilangan?



UYGA VAZIFA



- OLIY MAJLIS TASHKIL ETILGANIDAN TO HOZIRGI KUNGA QADAR QANDAY RIVOJLANISH BOSQICHLARIDAN O'TDI
- VAZIRLAR MAHKAMASINING TARKIBI QANDAY
- SUD TIZIMIDAGI ISLOXOTLAR NIMALARDAN IBORAT
- MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINING ROLI QANDAY
- O'ZBEKISTON SAYLOV TIZIMINI MUKAMMAL DEB HISOBLAYSIZMI?